

Didaktik o'yin

«YAXSHI-YOMON»

Mualliflardan:

- didaktik o'yin bolalarda fikrlash jarayonini shakllantiruvchi universal didaktik vosita hisoblanadi;

Didaktik o'yni ishlab chiqishda o'z maslahati va tavsiyalarini ayamagan ota-onalar hamda pedagoglarga minnatdorlik bildiramiz. Umid qilamizki, bolalar bu o'yni o'yash mobaynida izchil nutqini rivojlantirish, atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish hamda o'z salomatligiga e'tiborli bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Mualliflar:

Grosheva I. V., Nekrasova Y. A.

Retsenzentlar:

Maxmudova O.A.	Nizomiy nomidagi TDPUning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nazarova E.N.	Toshkent shahridagi Puchon universitetining (Koreya) maktabgacha ta'lif kafedrasi mudiri
Abdullayeva O.	Toshkent shahridagi 369-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisi
<p>"Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" parsial dasturiga ilova qilingan "Yaxshi-yomon" didaktik o'yini Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik kengashi ("___ 2022-yil № ___-sonli bayonnomma), O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi Muvoqiflashtiruvchi kengash qarori bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya qilingan ("___ 2022-yil № ___-sonli bayonnomma).</p>	

Annotatsiya

"Yaxshi-yomon" didaktik o'yini Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisi hamkorligida "Maktabgacha yoshdag'i bolalarning ekologik ta'limi" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, ekologik ta'lif va tarbiya bo'yicha maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" parsial dasturiga ilova hisoblanadi. Mazkur didaktik o'yin 5-7 yoshdag'i bolalarga mo'ljalangan. Didaktik o'yni izchil nutqni va ekologik ta'lif-tarbiya masalalarini yechishda, shuningdek, bolani rivojlantirishdagi turli ta'lif sohalari bo'yicha mustaqil va birgalidagi faoliyatda ko'p maqsadda foydalanan mumkin.

Didaktik o'yin MTT pedagoglari, ota-onalar va tarbiyalanuvchilarga ekologiya bo'yicha bolalar o'yninlarini tashkillashtirishda foydali bo'ladi.

O'yin maqsadi

Bolalarni tabiat va sog'lom turmush tarzi (STT)ga nisbatan yaxshi va yomon xatti-harakatlarni tushunishga o'rgatish.

Qoida:

faqat bitta rasmni olish.

O'yin tavsifi

O'yin aylanuvchi mexanizm bilan o'zaro bog'langan, diametri turlicha bo'lgan ikkita Lulliy doirasidan tashkil topgan. Doiralar turli taraflarga, alohida-alohida aylanadi. Ustdidan mil (ko'rsatkich) biriktirilgan. U doira bo'ylab aylanadi.

O'yinga tabiatdagi turli holatlar, STT qoidalari (ijobiylar va salbiy harakatlar) hamda ushbu holatlarga mos belgilarni tasvirlangan rasmlar ilova qilingan.

O'yni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Yoshi kattalar bolalarga rasmlarni ko'rib chiqishni taklif etadi. Bola rasmlarni ko'zdan kechirayotganda unga tabiat va o'zining salomatligiga nisbatan yaxshi va yomon amallar insonlar tomonidan bajarilishi tushuntiriladi.

1-variant. "Yaxshi-yomon"

Bolalar juft-juft bo'lib o'ynaydilar. Bir bola salbiy amal qilayotgan inson tasvirlangan rasmni qizil maydonga biriktiradi, ijobjiy holat aks etgan rasmni esa yashil maydonga biriktiradi. Ikkinci bola esa sheringining tanlovini tushuntiradi, nega muayyan rasm qizil va yoki yashil maydonga tegishli ekanligini aytadi.

2-variant. "Belgini toping"

O'yinda 2 yoki 4 ishtirokchi qatnashadi. O'yin maydonida ijobjiy va salbiy holatlar aks etgan rasmlar joylashtirilgan, belgili kartochkalar esa maydonidan tashqarida. Bolalar navbatma-navbat milni aylantiradilar hamda ko'rsatilgan maydonidagi yaxshi va yomon amallarga mos belgilarni topadilar.

3-variant. "Yaxshi amalni bajarayotgan inson tasvirlangan rasmi toping va nima uchun bunday qilish yaxshiligini so'zlab bering"

O'yinda 2 yoki 4 ishtirokchi qatnashadi. O'yin maydonida faqat ijobjiy amallni rasmlar joylashtirilgan. Bolalar navbatma-navbat milni aylantiradilar. Mil qaysi bolada to'xtasa, u rasm tanlaydi va nima uchun bu amalni qilish kerakligini tushuntiradi.

4-variant. "Amalni tushuntiring"

O'yinda 2-4 ishtirokchi qatnashadi. O'yin maydonida ijobjiy va salbiy amallni rasmlar joylashtirilgan. Bolalar navbatma-navbat milni aylantiradilar. Mil qaysi bolada to'xtasa, u rasm tanlaydi (ijobjiy yoki salbiy holat tasvirlangan). Rasm ustiga unga muvofiq bo'lgan belgini mahkamlaydi. Shu tariqa barcha ishtirokchilar o'ynaydi.

5-variant. "Amalni to'g'rilang"

O'yinda 2-4 ishtirokchi qatnashadi. Bolalar navbatma-navbat Lulliy doiralari aylantiradilar. Mil qaysi bolada to'xtasa, u holatlardan birini to'g'rilaydi: yashil o'yin maydoniga insonning ijobjiy amallarini biriktiradi. Qolgan bolalar har bir holatga mos belgilarni ko'rsatadilar.

